

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

FIZIKA FAKULTETI

FIZIKA YO'NALISHI

NAZARIY FIZIKA VA KVANT ELEKTRONIKASI KAFEDRASI

**«Qo'zg'aluvchan chegaraga ega masalalar va ularning yechimini
sonli usullar qo'llab aniqlash» mavzusidagi**

Malakaviy bitiruv ishi

Bajaruvchi: Rosulov D.

Ilmiy rahbar: Saydullayev U.J.

Malakaviy bitiruv ishi nazariy fizika va kvant elektronikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2013 yil ____-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etiladi (bayonnoma №__).

Kafedra mudiri: dots. Xaydarov X.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013-yil __-iyundagi majlisida himoya qilindi va ____ ballga baholandi (bayonnoma №__).

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand – 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I §. QO'ZG'ALUVCHANG CHEGARAGA EGA YOKI STEFAN TIPIDAGI MASALALARNING MATEMATIK MODELLARI	4
1.1 Tekis plastinkani payvandlash masalasi.....	4
1.2. Idel gidrodinamik qo'zg'aluvchang chegaraga ega masala.....	5
1.3. Stasionar qo'zg'aluvchang chegaraga ega filtrasiya masalasi.....	8
II §. QO'ZG'ALUVCHANG CHEGARAGA EGA MASALALARDA CHEKLI AYIRMALI SXEMALARLAR	10
2.1. Differentsial operatorning chekli ayirmali (ChA) approksimatsiyasi.ChA masalaning qo'yilishi.	10
2.2. Kvazichiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi.....	20
2.3. Ayirmali sxema. Nyutona usuli.....	22
2.4. Kvazichiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun har xil oshkormas sxemalar.....	23
III. §. QO'ZG'ALUVCHANG CHEGARAGA EGA MASALALARNI SONLI ECHISH USULLARI	26
3.1. Koordinata to'r qo'zg'aluvchang front tugunini elib olish metodi.....	26
3.2. Frontni to'g'irlash metodi.....	29
3.3. Aralashmani filtrlashda hosil bo'ladigan cho'kmaning chiziqlimas siqilishi masalasini sonli yechish.....	32
XULOSA	38
ADABIYOTLAR	39

KIRISH

Chiziqlimas massa almashinish masalasida Stefan masalasining sonli echimi ancha muhim sanaladi va o'znavbatida ancha murakkabdir. Biz qarayotgan filtrlash masalasida qattiq zarra bilan aralashma o'rasidagi chegaraning o'zgarishini hosil bo'ladigan chegarani qoyish uchun qullaniladigan sonli usul bu chekli ayrimalar metodidir. Masalani echishning murakkab tomoni shundan iboratki, har vaqt qadamida, yoki, har ko'chish qadamida shablon tanlab borishimiz kerak. Ana shu hususiyat chiziqlimas tekis o'zgaruvchili masalaga nisbatan ancha qiyin bo'ladi.

Qo'zg'aluvchang chegaraga ega masalasi ikki hil usulda echiladi:

- Fazolar chegarasi tanlab olingan metod. Bu metod variable domain methods metodi deb yuritiladi.

- Chegara tanlab olimagan metod yoki bir fazadan ikkinchi fazaoga o'tish (fixed domain methods) metodi deb yuritiladi.

Birinchi metodlar qo'zg'aluvchang chegara vaqtning yoki koordinataning har bir qatlanida hisoblanib boradi. Butun sonli hisoblash jarayonida har bir vat yoki koordinataga mos xos chegara topilib boradi, ya'ni hisoblash dinamik chegaraning o'zgarishida noma'lum chegara topilib boradi. Bunday metod ya'ni vaqt har bir qadamida o'zgarishida koordinatalarni topish – koordinata to'rining frontini ushlash metodi ham deb yuritiladi.

Ikkinchi metodda esa dinamik to'r fazalar chegarasiga maxkamlangan deb hisoblanadi. Umuman qo'zg'aluvchang chegara to'g'rlanadi.

Malakaviy birituv ishida ikki metodlarni xususiy hol keng qaralib o'tilgan va ulardan foydalanib masalalar echilgan

I §. QO'ZG'ALUVCHANG CHEGARAGA EGA YOKI STEFAN TIPIDAGI MASALALARNING MATEMATIK MODELLARI

Kvazistasionar Stefan masalasi.

Qo'zg'aluvchang chegaraga ega klassik Stefan masalasini qaraylik. Chegaralanmagan Ω soxada issiqlik o'tkazish jarayonini qaraylik. Issiqlik o'tganda harorat u^* erish temperaturasi ga erishganda, erish v_0 tezlik bilan harakatlanadi, ya'ni S erish soxa chegarasi o'zgarib boradi. Bu jarayon qo'zg'aluvchang chegaraga ega deb ataladi. Agar jarayonni aniq masala bilan tushuntirish uchun payvandlash, idel gidrodinamik va filtrasiya masalalarini qaraymiz.

1.1 Tekis plastinkani payvandlash masalasi

Payvandlash masalasi. Cheksiz tekis qalinligi h bo'lgan plastikaga payvandlash asbobni ta'sir qildirsak. Issiqlik manbasi berilgan soxa vaqt o'tishi bilan kengayib boradi, ya'ni v_0 tezlik bilan harakatlanayotgan issiqlik soxasiga ega bo'lamiz. Erish temperaturasi u^* dan katta bo'lgan soxani Ω_+ soxa, u^* dan kichik bo'lgan soxani Ω_- deb olsak. Issiqlik manbasi berilgan soxa asta-sekinlik bilan chegarasini o'zgartirib boradi. Natijada S fazoviy o'tish chegarasi harakatlanadi. Bunday masala qo'zg'aluvchang chegaraga ega kvazistasionar masala deb nomlanadi. Issiqlik sig'imini, zichlikni va issiqlik o'tkazuvchanglik ko'effisientlarini mos ravishda $c(u)$, $\rho(u)$ va $k(u)$ deb olsak. $u = u^*$ no'qtada $c(u)$, $\rho(u)$ va $k(u)$ funksiyalar o'zgilashga ega bo'ladi.

Bu masala mos issiqlik o'tkazuvchanglik masalasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\rho(u)c(u)(v_0 \nabla)u = \nabla(k(u)\nabla u), \quad x \in \Omega \quad (1.1)$$

Plastikaning yuqori chegarasida berilayotgan issiqlik oqimida Ω soxaning chegarasi:

$$k(u) \frac{\partial u}{\partial N} = Q(x), \quad x_2 = h \quad (1.2)$$

Bu yerda N -normal. Plastikaning pastki soxasida $u(x)$ issiqlik saqlanib turadi va u_0 ga teng:

$$u(x) = u_0, \quad x_0 = 0. \quad (1.3)$$

Soxaning S chegarasida issiqlik uzluksiz:

$$[u] = u_+(x) - u_-(x) = 0, \quad x \in S \quad (1.4)$$

Bu yerda $u_{\pm} = \lim_{\substack{x' \rightarrow x \in S \\ x' \in \Omega_{\pm}}} u(x')$.

Soxalarni chegarasida issiqlik oqimi uzilishga ega bo'ladi, ya'ni Stefan masalasiga mos xarakterlanadi:

$$\left[k(u) \frac{\partial u}{\partial N} \right] = \lambda(v_0 N), \quad x \in S \quad (1.5)$$

Bu yerda λ -fazaviy o'tishning entalpiyasi.

Bu (1.1)-(1.5) malalar kvazistasionar Stefan masalasi ifodalaydi.

1.2. Idel gidrodinamik qo'zg'aluvchang chegaraga ega masala.

Idel gidrodinamik masala. Kanalda silliq bo'lmagan dunglikdan o'tayotgan suvning oqishini qaraylik. Idel siqilmaydigan suyuqlik tenglamasi (Eyler tenglamasi) quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(\nabla u) = 0, \quad (1.6)$$

$$(u \nabla) u = -\nabla p, \quad x = (x_1, x_2) \in \Omega_+. \quad (1.7)$$

Bu yerda $u = (u_1, u_2)$ -tezlik, p -bosim. ψ tok funksiyasi mos ravishda

$$u_1 = \frac{\partial \psi}{\partial x_2}, \quad u_2 = \frac{\partial \psi}{\partial x_1}, \quad (1.8)$$

Ko'rinishda kiritamiz va u (1.6) siqilmaslik shartini qanoatlantiradi. Tezlikning yuqori qismini ω orqali belgilasak, u

$$\omega = \frac{\partial u_2}{\partial x_1} - \frac{\partial u_1}{\partial x_2}. \quad (1.9)$$

Tenglikni qanoatlantiradi.

(1.8) va (1.9) lardan ko'rish mumkinki,

$$\Delta \psi = \frac{\partial^2 \psi}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 \psi}{\partial x_2^2} = -\omega, \quad x \in \Omega_+. \quad (1.10)$$

(1.7) ni yoyib yozsak

$$u_1 \frac{\partial u_1}{\partial x_1} + u_2 \frac{\partial u_1}{\partial x_2} = \frac{\partial p}{\partial x_1}, \quad (1.11)$$

$$u_1 \frac{\partial u_2}{\partial x_1} + u_2 \frac{\partial u_2}{\partial x_2} = \frac{\partial p}{\partial x_1}, \quad x \in \Omega_+. \quad (1.12)$$

(1.11) ni x_2 bo'yicha, (1.12) ni x_1 bo'yicha differensiallasak va natijalarni bir-biriga qo'shsak,

$$\frac{D(\psi, \omega)}{D(x_1, x_2)} = 0, \quad (1.13)$$

ni olamiz.

Bu yerda

$$\frac{D(y_1, y_2)}{D(x_1, x_2)} = \frac{\partial y_1}{\partial x_1} \frac{\partial y_2}{\partial x_2} - \frac{\partial y_1}{\partial x_2} \frac{\partial y_2}{\partial x_1}$$

Yakobian.

(1.13) dan ψ va ω lar funksional bog'lanishga ega

$$\omega = \omega(\psi). \quad (1.14)$$

(1.17) ni (1.10) ga qo'ysak okim Ω_+ soxasida ψ tok funksiyasi uchun quyidagi chiziqlimas Puassan tenglamasini olamiz:

$$\Delta \psi = -\omega(\psi), \quad x \in \Omega_+. \quad (1.15)$$

Oddiy xolda yuqori bo'lmagan oqim potensialida $\omega(\psi) = 0$ bo'ladi,

$$\Delta \psi = 0, \quad x \in \Omega_0 \quad (1.16)$$

tenglikka ega bo'lamiz.

Endi (1.15) va (1.16) tenglamalar uchun chegaraviy shartlarni qaraymiz. h balandlikdagi kanalning chiqish va kirishida suyuqlik tezligi o'zgarmas va berilgan deb olsak. U holda

$$u(x) = u_0, \quad x_1 = \pm\infty, \quad x_2 \in (0, h). \quad (1.17)$$

(1.8) va (1.17)lardan

$$\psi(x) = u_0 x_2 + \text{const}, \quad x_1 = \pm\infty, \quad x_2 \in (0, h)$$

ni olamiz, va masalan

$$\psi(x) = u_0 x_2, \quad x_1 = \pm\infty, \quad x_2 \in (0, h). \quad (1.18)$$

Agar Γ_+ dunglik qattiq bo'lsa, chegaraviy shart o'tkazuvchang bo'lmaydi

$$(uN) = 0, \quad x \in \Gamma_+,$$

(1.8) ni e'tiborga olsak,

$$\frac{\partial \psi}{\partial \tau} = 0, \quad x \in \Gamma_+$$

ni olamiz.

Bu yerda $\frac{\partial}{\partial \tau}$ - Γ_+ dan urinma bo'yicha hosila. (1.18) ni e'tiborga olsak,

$$\psi(x) = 0, \quad x \in \Gamma_+. \quad (1.19)$$

olamiz.

Endi noma'lum chegara S dagi shartni qaraymiz. Bu chegarada

$$\psi(x) = u_0 h, \quad x \in S \quad (1.20)$$

ga teng bo'ladi.

S chegara tok chizig'i deb hisoblasak, Bernulli integrali o'zgarmaz qiymatga erishadi. Atmosfera bosimi p_0 orqali ifodalasak,

$$p_0 + \frac{1}{2}(u_1^2 + u_2^2) + \rho g x_2 = p_0 + \frac{1}{2}u_0^2 + \rho g h, \quad (1.21)$$

olamiz. Bu yerda ρ -zichlik, g -esa erkin tushish tezlanishi. (1.20 va (1.21) larda quyidagi olamiz

$$\left(\frac{\partial \psi}{\partial N}\right)^2 = |\nabla \psi|^2 = u_0^2 + 2\rho g(h - x_0), \quad x \in S. \quad (1.22)$$

Bu yerda N - S chegaraga o'tkazilgan normal.

Shunday qilib (1.16), (1.18)-(1.20), (1.22) lar qo'zg'aluvchang chegarda masalasi bo'ladi.

1.3. Stasionar qo'zg'aluvchang chegaraga ega filtrasiya masalasi.

Stasionar filtrasiya. G'ovak muhitda suyuqlikning oqish masalasi qaraylik. Boshlang'ich shartdan filtrasiya tezligi u noldan boshlanadi deb olamiz. Agar p - bosim, $\rho g x_2$ - gidrostatik bosim, ρ - zichlik, g - erkin tushush tezlanishi deb olsak va to'liq bosimni P orqali belgilasak, u

$$P = p + \rho g x_2$$

ga teng bo'ladi.

Darsi qonuni bo'yicha filtrasiya jarayonni quyidagicha yozish mumkin:

$$u = -k \nabla (p + \rho g x_2). \quad (1.23)$$

Bu yerda k - filtrasiya koeffitsiyenti, umuman chiziqli emas.

Agar suyuqlikni siqilmaydigan deb qabul qilsak, uzluksizlik tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(\nabla u) = 0. \quad (1.24)$$

(1.23) va (1.24) lardan filtrasiya koeffitsiyenti k o'zgarmas bo'lsa, u holda bosim uchun tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\Delta p = 0 \quad (1.25)$$

(1.25) tenglama filtrasiya jarayonini o'rganish uchun asosiy tenglama hisoblanadi.

Damba orqali suyuqlikning filtrasiya masalasining qo'yilishi qaraylik. Atmosfera bosimini e'tiborga olmaylik, ya'ni havoda $p = 0$ deb qabul qilamiz. Qattiq Γ_+ asosda $(uN) = 0$ bo'ladi va (1.23) shartdan

$$\frac{\partial}{\partial N} (p + \rho g x_2) = 0, \quad x \in \Gamma_+ \quad (1.26)$$

ni olamiz.

Dambadan oldingi va keyingi suyuqlikning tezligini hisobga olmasak va to'liq gidrostatik bosimni tenglashadi. Shuning uchun dambaning Γ_+ chegara soxasida

$$p + \rho g x_2 = \rho g H, \quad x \in \Gamma_1 \quad (1.27)$$

ekanligi olamiz. Bu shartga $x_2 = H$ dan $p = 0$ bo'lishini ham qo'shamiz.

Xuddi shunday

$$p + \rho g x_2 = \rho g H, \quad x \in \Gamma_2 \quad (1.28)$$

Γ_+ chegarada ega bosim atmosfera bosimiga teng va masala shartiga ko'ra

$$p(x) = 0, \quad x \in \Gamma_3 \quad (1.19)$$

Qo'zg'aluvchang chegara S na shart quyidagicha bo'ladi:

$$p(x) = 0, \quad x \in S. \quad (1.30)$$

Ikkinchi shartni esa

$$\frac{\partial}{\partial N}(p + \rho g x_2) = 0, \quad x \in S \quad (1.31)$$

ga teng.

Shunday qilib, qo'zg'aluvchang chegaraga ega masasi (1.25)-(1.31) lardan iborat bo'ladi.

II §. QO'ZG'ALUVCHANG CHEGARAGA EGA MASALALARDA CHEKLI AYIRMALI SXEMALARLAR.

2.1. Differentsial operatorning chekli ayirmali (ChA) approksimatsiyasi.

ChA masalaning qo'yilishi.

Berilgan differentsial tenglamani taqribiy ifodalovchi ayirmali sxemalarni yozish uchun quyidagi ikkita amal bajarilishi kerak.

1. Argumentning uzluksiz o'zgarish sohasini uning diskret o'zgarish sohasiga almashtirish kerak;
2. Differentsial operatorni qandaydir chekli ayirmali operatorga almashtirish, bundan tashqari chegaraviy shartlar va boshlang'ich ma'lumotlar uchun ayirmali almashtirishlar tuzish kerak.

Bu jarayon amalga oshirilgandan keyin algebraik tenglamalar sistemasiga o'tamiz.

Uzluksiz argumentning barcha qiymatlari uchun ayirmali masalani echib bo'lmaydi. Shuning uchun bu sohada qandaydir chekli sondagi nuqtalar to'plami olinadi va faqat shu nuqtalarda taqribiy echim izlanadi. Bunday nuqtalar to'plamiga to'r deyiladi. Nuqtalarning o'zi esa to'r tugunlari deb ataladi.


To'r tugunlarida aniqlangan funktsiyaga to'rli funktsiya deyiladi.

Shunday qilib differentsial tenglama echimlari fazosini to'r funktsiyalar fazosi bilan almashtirdik.

Kesmada tekis to'r. $[0,1]$ kesmani N ta teng bo'lakga bo'lamiz. $h = x_i - x_{i-1} = 1/N$ to'r qadami deb ataladi. Bo'linish nuqtalari $x_i = ih$ - to'r tugunlari deyiladi. Barcha tugunlar to'plami $\omega_h = \{x_i = ih, i = \overline{1, N-1}\}$ to'rni tashkil qiladi. Bu to'plamga $x_0 = 0, x_n = 1$ chegaraviy nuqtalarni qo'shish mumkin, ya'ni $\bar{\omega}_h = \{x_i = ih, i = \overline{0, N}\}$ deb belgilaymiz.

Tekislikda tekis to'r. $\bar{D} = \{0 \leq x \leq 1, 0 \leq t \leq T\}$ sohada aniqlangan ikki o'zgaruvchili $u(x,t)$ funktsiyalar to'plamini qaraymiz.


x o`qining  $[0,1]$  va  $t$  o`qining $[0,T]$ kesmalarini mos ravishda N_1 va N_2 ta bo`laklarga bo`lamiz. $h=1/N_1, \tau=T/N_2$ bo`lsin. Bo`linish nuqtalaridan o`qlarga parallel to`g`ri chiziqlar o`tkazamiz. Natijada bu to`g`ri chiziqlar kesishishidan (x_i, t_j) tugunlarni hosil qilamiz, ular $\bar{\omega}_{h\tau} = \{(x_i, t_j) \in \bar{D}\}$ to`rni tashkil qiladi.



Bu to`r  $x$  va  $t$  yo`nalishlar bo`yicha h va τ qadamlarga ega.

SHunga o`xshash kesmada yoki tekislikda notekis to`rni qurish mumkin.

$x = (x_1, x_2)$ tekislikda Γ chegarali murakkab ko`rinishli  $G$  soha berilgan bo`lsin.



$x_{1i} = ih_1, x_{2j} = jh_2, i, j = 0, \pm 1, \pm 2, \dots, h_1, h_2 > 0$ to`g`ri chiziqlar o`tkazamiz. U holda  $(ih_1, jh_2)$  to`rni hosil qilamiz. «o» bilan ichki, «x» bilan esa tashqi nuqtalar belgilangan. Ichki nuqtalar to`plamini  $\omega_h$  bilan, chegaraviy nuqtalar to`plamini γ_h

bilan belgilaymiz. Shunday qilib ω_h to'ra ox_1, ox_2 yo'nalishlar bo'yicha tekis, ammo $\bar{G}$ soha uchun $\overline{\omega_h} = \omega_h + \gamma_h$ to'ra esa chegara yaqinida notekis.

Uzluksiz $x \in \bar{G}$ argumentli $u(x)$ funktsiyalar o'rniga $y(x_i)$ to'ra funktsiya olinadi. $y(x_i)$ to'ra funktsiyani vektor ko'rinishda berish mumkin.

Odatda $\{\omega_h\}$ to'ra to'plami h qadamga bog'liq bo'ladi. Mos ravishda $y_h(x)$ to'ra funktsiyalar ham h parametrdan bog'liq bo'ladi. Agar to'ra notekis bo'lsa h sifatida $h = (h_1, h_2, \dots, h_n)$ vektor qaraladi.

Uzluksiz argumentli $u(x), x \in G$ funktsiyalar qandaydir H_0 funktsional fazo elementlaridan iborat. $y_h(x)$ to'ra funktsiyalar esa H_h fazoning elementlari. SHunday qili chekli ayirmalar usuli H_0 fazoni $y_h(x)$ to'ra funktsiyalarning H_h fazosiga o'tkazadi.

H_0 fazodagi $\|\cdot\|_0$ norma kabi H_h chiziqli fazoda $\|\cdot\|_h$ norma kiritiladi.

Bir qator normalarni keltiramiz

1) C da normaning to'ra ko'rinishi:

$$\|y\|_c = \max_{x \in \bar{\omega}_h} |y(x)| \text{ yoki } \|y\|_c = \max_{0 \leq i \leq N} |y_i|.$$

2) L_2 da normaning to'ra ko'rinishi:

$$\|y\| = \left(\sum_{i=1}^{N-1} y_i^2 h \right)^{1/2} \text{ yoki } \|y\| = \left(\sum_{i=1}^N y_i^2 h \right)^{1/2}.$$

Taqribiy usullar nazariyasining asosiy e'tibori y_h ning $u(x)$ ga yaqinligini baholashga qaratiladi. Biroq y_h va $u(x)$ lar turli fazolarning vektorlaridir.

Baholashning ikkita imkoniyati mavjud:

1. $\omega_h(G)$ da berilgan y_h funktsiya G sohaning barcha nuqtalarida aniqlanadi (masalan, chiziqli interpolatsiya yordamida). Natijada $x \in G$ uzluksiz argumentli $\tilde{y}(x, h)$ funktsiyani olamiz. $\tilde{y}(x, h) - u(x)$ ayirma H_0 ga tegishli bo'ladi. y_h ning u ga yaqinligi $\|\tilde{y}(x, h) - u(x)\|_0$ bilan xarakterlanadi, bunda $\|\cdot\|_0$ - H_0 dagi norma.
2. H_0 fazo H_h ga akslantiriladi. Har bir $u(x) \in H_0$ funktsiyaga mos $u_h(x), x \in \omega_h$ to'ra funktsiyaga o'tkaziladi, ya'ni $u_h = \mathfrak{R}_h u \in H_h$. Bunda $\mathfrak{R}_h$ - H_0 dan H_h ga

oʻtkazuvchi chiziqli operator. Bu moslikni turli yoʻllar bilan amalga oshirish mumkin ($\mathfrak{R}_h$ turli operatorlarni tanlash bilan). Agar $u(x)$ uzluksiz funktsiya boʻlsa, $u_h(x) = u(x)$ deyish mumkin, bu erda $x \in \omega_h$. Baʼzan $x_i \in \omega_h$ tugunda $u_h(x_i)$ berilgan $x_i \in \omega_h$ tugunning qandaydir atrofi boʻyicha $u(x)$ ning oʻrta integral qiymati bilan aniqlanadi. Bundan keyin $u(x)$ - uzluksiz funktsiya va barcha $x_i \in \omega_h$ lar uchun $u_h(x_i) = u(x_i)$ boʻladi deb faraz qilamiz.

u_h toʻr funktsiyaga ega boʻlib, H_h fazoning vektori boʻlgan $y_h - u_h$ ayirmani hosil qilamiz. y_h ning u ga yaqinligi $\|y_h - u_h\|_h$ bilan xarakterlanadi, bunda $\|\cdot\|_h$ - H_h dagi norma. Bunda H_h fazodagi norma $\|\cdot\|_0$ normani barcha $u \in H_0$ vektor uchun approksimatsiyalaydi

$$\lim_{h \rightarrow 0} \|u_h\|_h = \|u\|_0$$

deb faraz qilish tabiiydir. Bu shartni H_h va H_0 fazodagi normalarning oʻzaro kelishganlik sharti deb ataymiz.

Biz bundan keyin ikkinchi yoʻldan foydalanamiz.

1. $Lv = dv/dx$.

x nuqtani fiksirlaymiz va $x-h, x+h$ nuqtalarni olamiz, bu erda $h > 0$. Lv approksimatsiya qilish uchun quyidagi ifodalardan biridan foydalanish mumkin

$$L_h^+ v \equiv \frac{v(x+h) - v(x)}{h} \equiv v_x, \quad (2.1)$$

$$L_h^- v \equiv \frac{v(x) - v(x-h)}{h} \equiv v_x^-. \quad (2.2)$$

(2.1) ifoda oʻng ayirmali hosila, (2.2) esa chap ayirmali hosilani tasvirlaydi. Ayirmali ifodalar ikki nuqtada aniqlangan.

Yana quyidagi ifodani olish mumkin

$$L_h^\sigma v \equiv \sigma v_x + (1 - \sigma) v_x^-,$$

bunda σ - ixtiyoriy haqiqiy son. Xususiyl holda $\sigma = 0,5$ boʻlganda markaziy ayirmali hosilani olamiz

$$v_x^\circ \equiv \frac{1}{2} (v_x + v_x^-) = \frac{v(x+h) - v(x-h)}{2h}. \quad (2.3)$$

(2.1), (2.2), (2.3) approksimatsiyalarda qanday xatolikga yo'l qo'yildi va x nuqtada $h \rightarrow 0$ da $\psi(x) = L_h v(x) - Lv(x)$ ayirma qay holda o'zini tutadi kabi savollarga javob berish muhimdir. $\psi(x)$ miqdor x nuqtada Lv ayirmali approksimatsiya xatoligi deyiladi.

$v(x)$ ni Teylor qatoriga yoyamiz

$$v(x \pm h) = v(x) \pm hv'(x) + \frac{h^2}{2} v''(x) + O(h^3).$$

Bu ifodani (2.1), (2.2), (2.3) larga qo'yamiz

$$v_x = v'(x) + \frac{h}{2} v''(x) + O(h^2), \quad v_x^- = v'(x) - \frac{h}{2} v''(x) + O(h^2), \quad v_x^+ = v'(x) + O(h^2).$$

Bundan ko'rinib turibdiki

$$\phi = v_x - v'(x) = O(h), \quad \phi = v_x^- - v'(x) = O(h), \quad \phi = v_x^+ - v'(x) = O(h).$$

V - L_h ayirmali operatorning $h < h_0$ o'lganda $III(x, h)$ shablondan iborat x nuqtaning $III(x, h_0)$ atrofida berilgan etarlicha silliq funktsiyalar $v \in V$ sinfi bo'lsin.

Agar

$$\psi(x) = L_h v(x) - Lv(x) = O(h^m)$$

bo'lsa L_h operator L differentsial operatorni x nuqtada $m > 0$ tartib bilan approksimatsiyalaydi deymiz.

Endi $Lv = v'' = \frac{d^2 v}{dx^2}$ ni misol sifatida approksimatsiyalash masalasini qaraylik

Uch nuqtali shablonda

$$L_h v = \frac{v(x+h) - 2v(x) + v(x-h)}{h^2}.$$

$$v_x(x) = v_x^-(x+h), \quad L_h v = \frac{v_x^-(x) - v_x^-(x)}{h} = \frac{1}{h} [v_x^-(x+h) - v_x^-(x)] = v_{xx}^-(x).$$

Ushbu holda approksimatsiya tartibi ikkiga teng bo'ladi, ya'ni $v_{xx}^-(x) - v''(x) = O(h^2)$.

Besh nuqtali shablonda

$$(x-2h, x-h, x, x+h, x+2h) \tag{2.4}$$

$Lv = v^{(4)}$ hosila uchun

$$L_h v = v_{xxxx}^- = \frac{1}{h^2} [v_{xx}^-(x+h) - 2v_{xx}^-(x) + v_{xx}^-(x-h)] =$$

$$= \frac{1}{h^4} [v(x+2h) - 4v(x+h) + 6v(x) - 4v(x-h) + v(x-h)]$$

olinadi.

Approksimatsiya tartibi ikkiga teng, ya'ni

$$\psi = v_{xxxx}^- - v^{(4)} = \frac{h^2}{6} v^{(6)} + O(h^4).$$

h daraja bo'yicha $\psi = L_h v - L v$ approksimatsiya xatoligi yoyilmasidan approksimatsiya tartibini oshirish uchun foydalanish mumkin. SHunga binoan

$$v_{xx}^- - v'' = \frac{h^2}{12} v^{(4)} + O(h^4) \leq \frac{h^2}{12} v_{xxxx}^- + O(h^4)$$

ga ega bo'lamiz.

Bundan (4) shablonda aniqlangan

$$L_h v = v_{xx}^- - \frac{h^2}{12} v_{xxxx}^-$$

operator $L v = v''$ ni to'rtinchi tartib bilan approksimatsiya qilishi kelib chiqadi.

Lemma. Agar $v \in C^{(2)}[x-h, x+h]$ bo'lsa

$$v_{xx}^- = \frac{v(x+h) - 2v(x) + v(x-h)}{h^2} = v''(\xi), \quad \xi = x + \theta h, \quad |\theta| \leq 1,$$

va agar $v \in C^{(4)}[x-h, x+h]$ bo'lsa

$$v_{xx}^- = v''(x) + \frac{h^2}{12} v^{(4)}(\xi), \quad \xi = x + \theta_1 h, \quad |\theta_1| \leq 1,$$

formulalar o'rinli bo'ladi.

Isbot. Integral shakldagi qoldiq hadi bilan olingan Teylor formulasidan foydalanamiz

$$v(x) = v(a) + (x-a)v'(a) + \dots + \frac{(x-a)^r}{r!} v^{(r)}(a) + R_{r+1}(x), \quad (2.5)$$

bunda

$$R_{r+1}(x) = \frac{1}{r!} \int_a^x (x-\xi)^r v^{(r+1)}(\xi) d\xi = \frac{(x-a)^{r+1}}{r!} \int_0^1 (1-s)^r v^{(r+1)}(a+s(x-a)) ds.$$

Integral uchun o'rta qiymat haqidagi teoremani qo'llaymiz

$$R_{r+1}(x) = \frac{(x-a)^{r+1}}{(r+1)!} v^{(r+1)}(\xi),$$

bunda ξ - $[a, x]$ kesmada x ning o`rta qiymati,

$$\xi = a + \theta(x-a), \quad 0 \leq \theta \leq 1, \quad \int_0^1 (1-s)^r ds = \frac{1}{r+1}.$$

(2.5) da x ni $x+h$ va a ni x bilan almashtirib, $r=1$ va $r=3$ uchun mos ravishda quyidagilarni olamiz

$$v(x+h) = v(x) + hv'(x) + h^2 \int_0^1 (1-s)v''(x+sh)ds, \quad (2.6)$$

$$v(x+h) = v(x) + hv'(x) + \frac{h^2}{2} v''(x) + \frac{h^3}{6} v'''(x) + \frac{h^4}{6} \int_0^1 (1-s)^3 v^{(4)}(x+sh)ds. \quad (2.7)$$

Bu erda h ni $-h$ ga, s ni $-s$ almashtirib

$$v(x-h) = v(x) - hv'(x) + h^2 \int_{-1}^0 (1+s)v''(x+sh)ds, \quad (2.8)$$

$$v(x-h) = v(x) - hv'(x) + \frac{h^2}{2} v''(x) - \frac{h^3}{6} v'''(x) + \frac{h^4}{6} \int_{-1}^0 (1+s)^3 v^{(4)}(x+sh)ds \quad (2.9)$$

formulalarni olamiz.

(2.6), (2.8) dan quyidagini olamiz

$$v_{xx}^- = \frac{v(x+h) - 2v(x) + v(x-h)}{h^2} = \int_{-1}^1 g_2(s)v''(x+sh)ds,$$

bunda

$$g_2(s) = \begin{cases} 1+s & \text{agar } -1 \leq s \leq 0 \text{ da,} \\ 1-s & \text{agar } 0 \leq s \leq 1 \text{ da.} \end{cases}$$

$g_2(s) \geq 0$ bo`lganligidan o`rta qiymat haqidagi teoremdan foydalanish mumkin, natijada

$$v_{xx}^- = v''(x+\theta h) \int_{-1}^1 g_2(s)ds = v''(x+\theta h) = v''(\xi), \quad -1 \leq \theta \leq 1,$$

bu erda ξ - $[x-h, x+h]$ kesmada o`rta nuqta.

(2.7) va (2.9) dan

$$v_{xx}^- = v''(x) + \frac{h^2}{6} \int_{-1}^1 g_4(s)v^{(4)}(x+sh)ds$$

hosil qilamiz, bu erda

$$g_4(s) = \begin{cases} (1+s)^3 & \text{agar } -1 \leq s \leq 0 \text{ da,} \\ (1-s)^3 & \text{agar } 0 \leq s \leq 1 \text{ da,} \end{cases}$$

$$\int_{-1}^1 g_4(s) ds = \frac{1}{2}.$$




$g_4(s) \geq 0$ va $v^{(4)}(x)$ uzluksizligidan, o`rta qiymat haqidagi teoremani qo`llab

$$v_{xx}^- = v''(x) + \frac{h^{(4)}}{12}(x + \theta h), \quad |\theta| \leq 1$$

ni olamiz va shu bilan lemma isbotlanadi.

$$Lv = \frac{\partial v}{\partial x} - \frac{\partial^2 v}{\partial x^2}, \quad v = v(x, t) \text{ ni ChAS ga yoyaylik.}$$

(x, t) - tekislikda nuqta bo`lsin. Shablonni aniqlaymiz. U to`rtta nuqtadan tashkil topgan bo`lsin (a rasm).



$L_{h\tau}$ ni quyidagicha aniqlaymiz

$$L_{h\tau}^{(0)} v = \frac{v(x, t + \tau) - v(x, t)}{\tau} - \frac{v(x + h, t) - 2v(x, t) + v(x - h, t)}{h^2}.$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$v = v(x, t), \quad \widehat{v} = v(x, t + \tau), \quad \check{v} = v(x, t - \tau).$$

Unda

$$v_t = \frac{v(x, t + \tau) - v(x, t)}{\tau} = \frac{\widehat{v} - v}{\tau}$$

va

$$L_{h\tau}^{(0)} = v_t - v_{xx}^-. \quad (2.10)$$

b rasmdagi shablondan foydalanilganda, $t + \tau$ momentda v_{xx}^- olinsa, u holda

$$L_{h\tau}^{(1)} = v_t - \widehat{v}_{xx}^-. \quad (2.11)$$

(2.10) va (2.11) larning chiziqli kombinatsiyasini olib, $\sigma \neq 0$ va $\sigma \neq 1$ bo'lganda oltinuqtali shablonda (v rasm) aniqlangan chekli operatorlarning bir parametrli oilasini hosil qilamiz


$$L_{h\tau}^{(\sigma)} v = v_t - (\sigma \widehat{v}_{xx}^- + (1 - \sigma) v_{xx}^-). \quad (2.12)$$

$L_{h\tau}^{(0)}$ operatorlar $L_{h\tau}^{(1)}$ ning approksimatsiya tartibiga ega, (2.12) esa $\sigma < 0,5$ bo'lganda $O(h^2 + \tau)$, $\sigma = 0,5$ bo'lganda $O(h^2 + \tau^2)$ approksimatsiya tartibiga ega.

Endi

$$Lv = \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} - \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} \text{ qaraylik.}$$

Quyidagi shablonlardan foydalanilamiz



Аппроксимациялардан бири (v rasm)

$$L_{h\tau} = v_{tt} - v_{xx}, \quad (2.13)$$

бунда

$$v_{tt} = (v(x, t + \tau) - 2v(x, t) + v(x, t - \tau)) / \tau^2.$$

a) shablonda:

$$L_{h\tau} v = v_{tt} - \hat{v}_{xx}. \quad (2.14)$$

To'qqiznuqtali shablonda (g rasm) ayirmali operatorlarning ikkiparametrli oilasini yozish mumkin

$$L_{h\tau}^{(\sigma_1, \sigma_2)} v = v_{tt} - (\sigma_1 \hat{v}_{xx} + (1 - \sigma_1 - \sigma_2) v_{xx} + \sigma_2 \check{v}_{xx}). \quad (2.15)$$

(2.15) dan $\sigma_1 = \sigma_2 = 0$ bo'lganda (2.13), $\sigma_2 = 0, \sigma_1 = 1$ bo'lganda esa (2.14) kelib chiqadi.

(2.13), (2.14), (2.15) ayirmali operatorlar $O(h^2 + \tau^2)$ аппроксимация tartibiga ega.

2.2. Kvazichiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi

Yuqori temperaturada o'tuvchi jarayonlar uchun, masalan plazmada, issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsiyenti temperaturaning chiziqlimas funksiyasi bo'ladi (zichligi ham), bir qator masalalarda esa temperatura gradiyenti funksiyasi ham chiziqlimas funksiya bo'ladi. Bundan tashqari yana issiqlik manbalari (issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasining o'ng tarafi) temperaturadan bog'liq bo'lishi mumkin, masalan issiqlik ximyaviy reaksiya natijasida ajralsa. Muhitning issiqlik sig'imi ham temperaturadan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu tarzda biz chiziqlimas issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasiga kelimiz:

$$\frac{\partial \varepsilon(x, t, u)}{\partial t} = -\frac{\partial w}{\partial x} + f(x, t, u),$$

bunda issiqlik oqimi (ε - ichki energiya) quyidagicha bo'ladi

$$w = w\left(x, t, u, \frac{\partial u}{\partial x}\right)$$

va u ham i temperatura va uning hosilasining chiziqlimas funksiyasi bo'ladi. Agar issiqlik oqimi di/dx hosiladan chiziqli bog'liq bo'lsa va Furrye qonuni bajarilsa

$$w = -k(x, t, u) \frac{\partial u}{\partial x},$$

u holda biz kvazichiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini hosil qilamiz

$$c(x, t, u) \frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(k(x, t, u) \frac{\partial u}{\partial x} \right) + f(x, t, u),$$
$$c(x, t, u) > 0, \quad k(x, t, u) > 0.$$

Bu holda issiqlik sig'imi s , issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsiyenti k va o'ng taraf f (issiqlik manbalari zichligi) $i(x, t)$ temperaturadan bog'liq. Birjinslimas muhitda k , s , f lar x va t ning uzulishli funksiyalari bo'lishi mumkin (har xil moddalar uchun k , s , f lar i temperaturadan har xil bog'liq bo'lishi mumkin).

$k=k(u)$, $c=c(u)$, $f=f(u)$ funksiyalar faqat i temperaturadan bog'liq hol tipik hol sanaladi:

$$c(u) \frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(k(u) \frac{\partial u}{\partial x} \right) + f(u). \quad (2.16)$$

Yangi o'zgaruvchi kiritsak

$$v = \int_0^u k(\xi) d\xi,$$

(2.16) tenglama ushbu ko'rinishga keladi

$$\frac{\partial \varphi(v)}{\partial t} = \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + \hat{f}(v), \quad \varphi(v) = \int_0^u c(\xi) d\xi.$$

Agar o'zgaruvchini

$$v = \int_0^u c(\xi) d\xi,$$

deb kiritsak, u holda (1) o'rniga quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$\frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\chi(v) \frac{\partial v}{\partial x} \right) + \tilde{f}(v),$$

shunday qilib

$$\int_0^v \chi(v) dv = \int_0^u k(u) du$$

tenglik bajariladi (bu x bo'yicha differensiallab tekshiriladi).

Ko'pincha $s(i)$ va $k(i)$ temperaturaning darajali funksiyasi ko'rinishida bo'ladi

$$c(u) = c_0 u^\alpha, \quad k(u) = k_0 u^\beta.$$

Bu holda

$$v = \int_0^u c(\xi) d\xi = c_0 \frac{u^{\alpha+1}}{\alpha+1}$$

o'zgaruvchini kiritamiz va

$$k \frac{\partial u}{\partial x} = \frac{k}{c_0 u^\alpha} \frac{\partial v}{\partial x} = \frac{k_0}{c_0} u^{\beta-\alpha} \frac{\partial v}{\partial x} = \frac{k_0}{c_0} \left(\frac{\alpha+1}{c_0} \right)^{\frac{\beta-\alpha}{\alpha+1}} v^{\frac{\beta-\alpha}{\alpha+1}} \frac{\partial v}{\partial x},$$

ekanligini hisobga olib (1) tenglamani quyidagi ko'rinishga keltiramiz

$$\frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\chi_0 v^\sigma \frac{\partial v}{\partial x} \right) + \tilde{f}(v), \quad \sigma = \frac{\beta-\alpha}{\alpha+1},$$

$$\chi_0 = \frac{k_0}{c_0} \left(\frac{\alpha+1}{c_0} \right) \frac{\beta-\alpha}{\alpha+1}.$$

2.3. Ayirmali sxema. Nyutona usuli

Agar $k(u)$, $s(i)$, $f(i)$ lar temperaturaning tez o'zgaruvchi funksiyalari bo'lsa kvazichiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun oshkor sxemalarni qo'llash ma'sadga muvofiq emas.

Oshkor sxemaning turg'unlik sharti

$$\frac{\tau}{h^2} \leq \frac{1}{2} \frac{\min c(u)}{\max k(u)}$$

bo'lib, vaqt bo'yicha kichik qadamni talab etadi, k , s funksiyalar qiymatlari ko'pincha katta bo'lmagan tugunlar sonida aniqlanadi. Shuning uchun shartsiz turg'un oshkormas sxemalar qo'llaniladi. Avval ushbu tenglamani

$$\frac{\partial \varphi(u)}{\partial t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad 0 < x < 1, \quad (2.17)$$

